

Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishning xalqaro-huquqiy va milliy mexanizmlari

Qahramanova Aziza Ulug'bek qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

azizakhon8800@mail.ru

Annotatsiya

Yoshlar davlat kelajagi hisoblanganligi bois bolalarga bo'lgan e'tibor, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish har bitta davlat siyosatida muhim o'rinnegallaydi va ushbu soha nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda keng e'tibor berilishni talab qiladi desak adashmagan bo'lamiz. Har yili dunyo bo'y lab millionlab bolalar zo'ravonlikning turli ko'rinishlaridan aziyat chekayotganligi va bu son yildan-yilga oshib borayotganligi mavzuning qay darajada dolzarb ekanligidan dalolat beradi va bolalarni zo'ravonlikning har qanday shakllaridan himoya qilishning xalqaro-huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash zaruriyati paydo bo'lmoqda. Ushbu maqolada bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishning xalqaro-huquqiy va milliy mexanizmlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, jismoniy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, “Bola huquqlari to'g'risida”gi 1989-yildagi Konvensiya, BMTning bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi, himoya orderi.

International legal and national mechanisms to protect children from violence

Annotation

Since the youth are considered to be the future of the state, attention to children, protection of their rights and freedoms occupies an important place in the policy of every state, and undoubtedly this area requires wide attention not only at the national level, but also at the international level. The fact that every year millions of children around the world suffer from various forms of violence and this number is increasing year by year shows how relevant the topic is and the need to further strengthen the international legal mechanisms to protect children from all forms of violence. This article highlights the international legal and national mechanisms for protecting children from violence.

Key words: child rights, physical abuse, mental abuse, 1989 Convention on the Rights of the Child, UN Committee on the Rights of the Child, protection warrant.

Bola huquqlari va ularni himoya qilish masalasi barcha davlatlarda, ularning shaklidan qat'iy nazar, eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolardan biri bo'lib, uni hal qilishda butun dunyo hamjamiyati manfaatdor bo'lishi kerak. Afsuski, zo'ravonlik butun dunyo bo'ylab millionlab bolalar uchun dahshatli haqiqat bo'lib qolmoqda. Zo'ravonlik bolalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va ularning rivojlanish qobiliyatiga va ilm olish faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu oddiy munosabatlarga xalaqit beradi, o'z qurbonlarida o'zini past baholaydi, hissiy stress va depressiyani keltirib chiqaradi va ba'zi hollarda ularni xavfli xatti-harakatlarga, o'ziga zarar etkazishga va tajovuzkor xatti-harakatlarga undaydi. Bundan tashqari, zo'ravonlik jamiyat uchun jiddiy iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi, uning insoniy salohiyatiga salbiy ta'sir qiladi va ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab 1,5 milliardgacha bola zo'ravonlikka duchor bo'ladi¹. Zo'ravonlik hamma joyda, jumladan, bolalar o'zlarini butunlay xavfsiz his qilishlari kerak bo'lgan joylarda - bolalar bog'chalarida, maktablarda va oilalarda sodir bo'layotgan holatlar aniqlangan. Ko'pincha yosh bolalar zo'ravonlikdan aziyat chekishadi chunki ular doimo shikoyat qilish va yordam so'rashga qodir emaslar. Bunday bolalarda, shuningdek, doimiy ruhiy yoki jismoniy zarar ko'rish xavfi yuqori bo'ladi.

Bolalar huquqlarini xalqaro himoya qilish masalasi XX asr boshlarida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil topishidan ancha oldin butun dunyoda jiddiy masala sifatida ko'tarilgan. Bolalar huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlarini yaratish zarurati 1913-yil 23-26-iyulda Bryusselda bo'lib o'tgan Bolalarni himoya qilish bo'yicha xalqaro kongressda muhokama qilindi va unda bolalar alohida himoya va g'amxo'rlikka muhtoj aholi qatlami deb tan olindi.

Bola huquqlarini himoya qilish va bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashning xalqaro-huquqiy mexanizmlariga to'xtaladigan bo'lsak, 1945-yil 26-iyunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining imzolanishi inson huquqlarini himoya qilish, shuningdek bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishni yangi darajaga

¹ <https://violenceagainstchildren.un.org/ru/news/protecting-children-violence-human-rights-imperative>

ko'tardi². Bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi asosiy universal xalqaro shartnoma BMTning 1989-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasidir³. Unda bolalarning quyidagi asosiy huquqlari belgilab qo'yilgan: yashash huquqi shu jumladan omon qolish va sog'lom rivojlanish; tug'ilgandan keyin ro'yxatdan o'tish, ism va fuqarolikka ega bo'lish, ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rligida bo'lish huquqi; individuallikni, shu jumladan oilaviy aloqalarni saqlash huquqi; oila birligi huquqi va agar bu bolaning manfaatlariga zid bo'lmasa ota-onalar bilan aloqada bo'lish huquqi; oilani birlashtirish va ular bilan o'z davlati hududidan chetga chiqish huquqi; o'z fikrini erkin ifoda etish va har qanday sud yoki ma'muriy jarayonda o'z fikrlarini bildirish huquqi; uyushmalarga kirish va tinch yig'inlar huquqi va boshqalar.

Ushbu Konvensiyaning 19-moddasida bilan ishtirokchi-davlatlarga bolalarni ota-onalar, qonuniy vakillar yoki boshqa shaxslar tomonidan jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik, haqorat yoki suyiste'mollik, qarovsizlik yoki beparvolik, zo'ravonlik yoki ekspluatatsiya, shu jumladan jinsiy zo'ravonlikdan himoya qilish uchun barcha zarur qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy choralarini ko'rish majburiyati yuklangan.

Demak, bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy mexanizmi deganda xalqaro hamjamiyat tomonidan maxsus organlar orqali davlatlarning bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilinishi tushuniladi. Inson huquqlari bo'yicha barcha xalqaro tashkilotlar, shu jumladan bolalar huquqlarini himoya qilish bilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar 2 turga bo'linadi: universal darajadagi xalqaro tashkilotlar (BMT doirasida) va mintaqaviy darajadagi tashkilotlar (ma'lum bir belgilangan huduq doirasida). Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha universal xalqaro tashkilotlarga misol qilib Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti, BMTning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha tashkiloti (UNESCO), BMTning xalqaro bolalar fondi (UNICEF), BMT taraqqiyot dasturi, BMTning bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi kabilarni misol qilib keltirsak bo'ladi. Mintaqaviy darajadagi xalqaro tashkilotlarga esa Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Yevropa Ittifoqi, Afrika bolalar huquqlari va farovonligi bo'yicha ekspertlar qo'mitasi, Lotin Amerikasi Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi va boshqalar. Shunday qilib,

² <https://www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text>

³ <https://www.unicef.org/child-rights-convention>

xalqaro miqyosda bolalar huquqlarini himoya qilish turli yo'llar bilan, turli mexanizmlar, organlar va tashkilotlar orqali amalga oshirilishi mumkin va ushbu sohadagi asosiy muammo qabul qilingan xalqaro normalarning aksariyati tavsiyaviy xarakterga egaligidadir.

Bola huquqlarini himoya qilish va bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha milliy qonunchiligidimizni olib borilayotgan islohotlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, mustaqillikka erishganimizdan keyin inson huquqlari shu jumladan bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha mexanizmlarni yaratilishi yo'lida 1992-yil 9-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 757-XII-sonli “Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish to'g'risida”gi qarori qabul qilindi⁴. Bundan tashqari Prezidentimizning 2019-yil 22-apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinnbosari — Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etildi. 2020-yil 29-maydagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarorida Bola huquqlari bo'yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari belgilab berildi. Shuningdek, 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda “Oila, bolalar va yoshlar” degan bob kiritilgan va bola huquqlarining kafolatlari bosh qomusimizda ham aks ettirildi. Xususan Konstitutsiyamizning 78-moddasida - Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirilar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi deb belgilab qo'yilgan.

2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 1-con, 41-modda

tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonga asosan tashkil qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi ham aholining himoyaga muhtoj qatlamlaridan biri bo‘lmish bolalar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini oldini olishda muhim ahamiyatga ega tashkilot sifatida faoliyatini olib bormoqda. Voyaga yetmagan bolalarnining huquqlarini himoya qilish sohasida agentlikning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat⁵:

- bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- vasiylik va homiylik tizimini takomillashtirish, shu jumladan oilaga asoslangan bolalarni parvarish qilishning muqobil shakllarini rivojlantirish;
- farzand asrab olish tizimini takomillashtirish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishni tashkil etish;
- himoyaga muhtoj bolalarni davolashni tashkil qilish tizimini takomillashtirish.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida bola huquq va manfaatlarini yanada takomillashtirishga oid o‘ndan ortiq chora-tadbirni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, bolalar huquqlarini kafolatlash, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish har bir bolaning adolatli va manfaatli rivojlanishini ta’minlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun bola huquqlari tom ma’noda himoya etiladigan va hurmat qilinadigan maqbul muhitni yaratish uchun faqat davlat tashkilotlarining bu boradagi faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatimizning ham barcha qatlamlarida doimiy sa’y-harakatlarni birlashtirish va o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish taqozo etiladi.

Research Science and Innovation House

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-6480342>

Foydalanilgan adabiyotlar ro’txati:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 01.05.2023
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 12.10.1948
3. Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya, 1989
4. A.Egamberdiyev. Xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar. O’quv qo’llanma. Toshkent – 2020.
5. G.Yuldasheva, N. Gafurova. Inson huquqlari. Toshkent – 2023
6. Inson huquqi. Darslik. Toshkent – 2021. “Yuridik adabiyotlar publish”.
7. Права человека: Сборник международно-правовых документов. М., 1999. С.45.

**Research Science and
Innovation House**